

# Musiqqa ta'limi ta'limi

5111100- Musiqqa ta'limi - umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun musiqqa bo'yicha o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

## 5111100 – Musiqqa ta'limi ta'limiyo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

### 4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi

5111100– Musiqqa ta'limi – umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun musiqqa bo'yicha o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

### 4.2 Bakalavrlarning kasbiyfaoliyati obyektlari

5111100 – Musiqqa ta'limi ta'limi yo'nalishibakalavrlarning **kasbiy faoliyati obyektlari** – umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari, musiqqa o'qitish usullari.

### 4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari

5111100 – Musiqqa ta'limi ta'limiyo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

- *o'qituvchilik;*
- *tarbiyachilik;*
- *o'quv-metodik;*
- *ilmiy-tadqiqot.*
- *Madaniy-oqartuv ishlariga moslashish*

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

### 4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

**5111100 – Musiqa ta’limi** yoʻnalishi boʻyicha bakalavr taʼlim dasturini oʻzlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:

- **oʻqituvchilik:** umumiy oʻrta taʼlim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari da musiqa oʻqituvchisi boʻlib ishlash;

- **tarbiyachilik:** maktabgacha taʼlim muassasalari, umumiy oʻrta taʼlim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari dan tashqari muassasalarda tarbiyachi (musiqa raxbari) boʻlib ishlash;

- **oʻquv-metodik:** mos taʼlim yoʻnalishlar boʻyicha taʼlimni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist boʻlib ishlash;

- **ilmiy-tadqiqot** muassasalarida kichik ilmiy xodim boʻlib ishlash va boshqalar.

- **madaniy-oqartuv ishlariga moslashish:** madaniyat uylari, musiqiy konsert birlashmalari (Oʻzbeknavo va viloyat filiallari qoshida) da ijrochi xonanda va sozanda mutaxasissi boʻlib ishlash.